

**O‘ZBEKISTONDA PENSIYA TA‘MINOTI TIZIMINI ISTIQBOLDA  
BARQAROR AMALGA OSHIRILISHINI TA‘MINLASH YO‘LLARI**

*Ilmiy rahbar: Yusupova Nasiba Abdujabbarovna  
Ipak yo‘li innovatsiyalar universiteti o‘qituvchisi  
Iqtisodiyot yo‘nalishi 22/3-gurux talabasi  
Bekbayeva Feruza*

**Аннотация.**

**Калит сўзлар:** Pensiya ta‘minoti, O‘zbekiston Respublikasi, taraqqiyot strategiyasi, Pensiya jamg‘armasi, pensiya yoshi, ijtimoiy sug‘urta, davlat, aholi, Vazirlar Mahkamasi, fuqarolar,

**Abstract.** Pensiya ta‘minoti tizimi har bir mamlakatning aholini ijtimoiy himoya qilishda muhim dastagi hisoblanadi. Bunda asosan belgilangan muddatlarda pensiya uchun badallar o‘tkazib borgan, mehnat layoqatini butunlay yoki vaqtincha yo‘qotgan, boquvchisidan mahrum bo‘lgan shaxslarni pensiyalar orqali ularni moddiy ta‘minlash tushuniladi, ya‘ni pensiya ayrim toifadagi shaxslar uchun davlatning eng muhim ijtimoiy kafolatlaridan biridir. Jahon amaliyotida pensiya ta‘minoti ijtimoiy muxofazaning ajralmas qismi hisoblanib, davlatning asosiy fuksiyalaridan biri hisoblanadi.

**Key words:** Pension provision, Republic of Uzbekistan, development strategy, Pension Fund, retirement age, social insurance, state, population, Cabinet of Ministers, citizens,

**Abstract.** The pension system is an important tool for social protection of the population of every country. This mainly means the financial support of persons who have paid contributions for pension within the specified periods, who have completely or temporarily lost their ability to work, who are deprived of their breadwinners through pensions, that is, pension is one of the most important social guarantees of the state for certain categories of persons. . In world practice, pension provision is considered an integral part of social protection and is one of the main functions of the state.

Pensiya ta‘minoti tizimi har bir mamlakatning aholini ijtimoiy himoya qilishda muhim dastagi hisoblanadi. Bunda asosan belgilangan muddatlarda pensiya uchun badallar o‘tkazib borgan, mehnat layoqatini butunlay yoki vaqtincha yo‘qotgan, boquvchisidan mahrum bo‘lgan shaxslarni pensiyalar orqali ularni moddiy ta‘minlash tushuniladi, ya‘ni pensiya ayrim toifadagi shaxslar uchun davlatning eng muhim ijtimoiy kafolatlaridan biridir.

Aholini bu turdagi ijtimoiy qo‘llab quvvatlash haqida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-2021 yillarda mamlakatimizni rivojlantirishning beshta ustuvor

yoʻnalishi boʻyicha harakatlar strategiyasida, shuningdek, 2022-2026 yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham oʻz aksini topgan.

Nemis iqtisodchisi A.Borsh-Supan Yevropa mamlakatlarida pensiya tizimini (xususiy, birdamlik pensiya tizimi) isloh qilishning asosiy muammolarini qilinayotgan xarajat va aholining oʻrtacha umr koʻrish yoshining oʻsishi nuqtai nazardan koʻrib chiqqan.

Rossiyalik olim V.Roikning ilmiy ishlarida aholini ijtimoiy himoya qilishda pensiya taʼminotining oʻrni, pensiya sugʻurtasi, Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi farmoniga asosan tasdiqlangan taraqqiyot strategiyasining “Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish” nomli toʻrtinchi yoʻnalishida belgilangan “54 maqsad – pensiya taʼminoti tizimini takomillashtirishga bagʻishlangan boʻlib, bunda fuqarolarning pensiya miqdorlari mamlakatning iqtisodiy koʻrsatkichlariga muvofiq izchil oshib borishini taʼminlash vazifasi belgilab quyilgan”.

Jahon amaliyotida pensiya taʼminoti ijtimoiy muxofazaning ajralmas qismi hisoblanib, davlatning asosiy fuksiyalaridan biri hisoblanadi. Davlatning tuzilishi va imkoniyatlariga muvofiq holda fuqarolarning ijtimoiy taʼminotga boʻlgan huquqlari Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) Bosh Assambleyasi tomonidan 1948 yil 10 dekabrda qabul qilingan “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”ning 22-moddasida qayd etib oʻtilgan. Unga koʻra, pensiya taʼminoti – muayyan davlat qonunchiligida oʻrnatilgan tartibda, asosiy daromad manbasini qariyalik, nogironlik va boquvchisini yoʻqotgan fuqarolarni moddiy taʼminlashga yoʻnaltirilgan huquqiy va iqtisodiy chora-tadbirlar majmuasidir.

Rozanovning taʼkidlashicha, jahon amaliyotida jamgʻarib boriladigan va taqsimlanuvchi pensiya modellari sof holda kam uchraydi. Bir vaqtning oʻzida majburiy va ixtiyoriy jamgʻarib boriladigan qismlari mavjud pensiya tizimi iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga aʼzo mamlakatlar orasida faqat Norvegiyada amal qiladi.

Vavulinning fikricha, xususiy pensiya fondlari – notijorat moliyaviy tashkilotlar boʻlib, pensionerlarning ixtiyoriy qoʻyilmalari hisobiga ularni moliyaviy nafaqa bilan taʼminlaydi. Ular majburiy pensiya sugʻurtasi va nodavlat (qoʻshimcha) pensiya taʼminoti bilan shugʻullanadilar.

Nemis iqtisodchisi A.Borsh-Supan Yevropa mamlakatlarida pensiya tizimini (xususiy, birdamlik pensiya tizimi) isloh qilishning asosiy muammolarini qilinayotgan xarajat va aholining oʻrtacha umr koʻrish yoshining oʻsishi nuqtai nazardan koʻrib chiqqan.

Rossiyalik olim V.Roikning ilmiy ishlarida aholini ijtimoiy himoya qilishda pensiya taʼminotining oʻrni, pensiya sugʻurtasi, ijtimoiy sugʻurta va uning moliyaviy-iqtisodiy asoslari, pensiya tizimida islohotlarni amalga oshirishda qanday usullardan foydalanish kerakligi borasida usullar keltirilgan.



Xalqaro moliyaviy tashkilotlar iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti, Jahon banki, xalqaro pensiya va ijtimoiy jamg'armalar assotsiatsiyasi, xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan har yili jahon mamlakatlari pensiya tizimlarining holati, undagi islohotlar tadqiq etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikga erishgunga qadar, ya'ni rejali iqtisodiyot davrida pensiya ta'minoti tizimi davlat ijtimoiy ta'minotining tarkibiy komponenti hisoblangan bo'lib, nafaqat pensiya ta'minoti, balki moddiy yordam, ijtimoiy, tibbiy, sanatoriy va kurort xizmatlari, mehnatga layoqatisiz va keksalarni ijtimoiy himoya qilish kabi xizmatlarni ham qamrab olgan edi. Mazkur vaziflarni amalga oshirish uchun esa davlat budjetidan mablag'lar ajratilgan. Bunday sxemaning mavjudligi pensiya ta'minotini moliyaviy boshqarishning davlat organi sifatida Pensiya jamg'armasini tashkil qilishga zarurat bo'lmagan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1991 yil 14 yanvardagi 9-sonli qaroriga ko'ra, SSJ Pensiya fondining O'zbekiston jumhuriyat bo'limi tashkil etildi. Bu pensiya ta'minoti tizimidagi yangi bosqich edi. Aynan shu davrdan boshlab mamlakatimizda pensiya ta'minoti tizimida yangilanish va islohotlar jarayonlari boshlandi. 1994 yilda esa Vazirlar Mahkamasi huzurida Ijtimoiy sug'urta jamg'armasi tashkil etildi.

Keyinchalik, Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 27 dekabrda 459-sonli qaroriga asosan Ijtimoiy sug'urta jamg'armasi Ijtimoiy ta'minot vazirligi huzuridagi Pensiya jamg'armasiga aylantirildi va davlat budjeti tarkibiga kiritildi.

Mazkur jamg'arma Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 15 noyabrda 444-sonli qaroriga ko'ra O'zbekiston Respublikasi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga o'zgardi hamda jamg'armaga majburiy to'lovlar soliqlarga tenglashtirildi va bu Soliq kodeksida mustahkamlab qo'yildi.

Shuningdek, 2005 yil 1 yanvardan boshlab jamg'arma Moliya vazirligining idoraviy qaramog'iga o'tkazildi. Bunda yuzaga kelgan o'ziga xoslik shundaki, pensiya ishlarini tayinlash va hisoblash ishlari Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi (hozirgi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi) vakolatlarida saqlanib qolgan bo'lsada, mablag'larni jamlash, moliyalashtirish ishlari Moliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladigan bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 30 dekabrda PF-4161-sonli farmoni hamda PQ-1252-son qaroriga ko'ra O'zbekiston Respublikasi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga aylantirildi. O'zbekistonda pensiya ta'minoti tizimining bugungi holatini pensiya sug'urtasining elementlari bilan taqsimlash tizimi ko'rinishida ifodalash mumkin. Hattoki 2005 yildan AT Xalq bankida jamg'arib boriladigan pensiya ham "avlodlar birdamligi" tamoyiliga asoslangan taqsimlovchi komponentlar asosida joriy qilindi.

Pensiya tizimidagi taqsimlovchi komponent ilk bor “Bismark modeli” asosida tashkil etilgan bo‘lsa-da, bizdagi hozirgi tizim ko‘proq sovet davrida amal qilgan pensiya ta‘minoti normalarini meros qilib olgan.

Bularni quyidagi omillar orqali ko‘rish mumkin:

- uch turdagi (yoshga doir, nogironlik, boquvchisini yo‘qotganlik) mehnat pensiyalarining amal qilishi;
- ko‘plab imtiyozli pensiya va nafaqa (moddiy yordam)larning mavjudligi;
- pensiya miqdorini aniqlashda past differentsiatsiya ko‘rsatkichi;
- belgilangan pensiya yoshining past ekanligi va o‘zgarishsiz qolayotganligi (erkaklar uchun 60 yosh, ayollar uchun 55 yosh);
- ayollarning o‘rtacha umr ko‘rish yoshi erkaklarnikiga nisbatan yuqori ekanligiga qaramay, ular uchun pensiya bo‘yicha imtiyozlar ko‘pligi.

Xulosa o‘rnida pensiya ta‘minotini sug‘urta prinsiplariga o‘tkazishda quyidagi bosqichlarda amalga oshirilishi zarur:

1. Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasini mustaqil moliya instituti sifatida statusini o‘zgartirish, o‘z xarajatlarini o‘zi mustaqil qoplashi uchun moliyalashtirishning sug‘urta prinsipiga o‘tish va quyidagi vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- pensiya uchun ma‘lum bir belgilangan badallarni to‘lamayotgan yoki imtiyozli asosda pensiya olish huquqini beruvchi imtiyozlar ro‘yxatini qaytadan ko‘rib chiqish;
- pensiyaga sug‘urta badallarini to‘lashning yangicha mexanizmini ishlab chiqish, masalan, ballik tizimda yoki sug‘urta to‘langan davrlar va to‘langan yillik ish haqi miqdoridan kelib chiqib koeffitsientlar belgilash, belgilangan koeffitsient yoki ballarga qarab pensiyalarni hisoblash;
- sug‘urta modeliga asoslangan va jamg‘arish komponentlariga ega tizim asosida har bir sug‘urta badalini to‘lovchi (mehnat qiluvchi) shaxs uchun pensiya sug‘urtasi bo‘yicha shaxsiy hisob raqam (PSSHHR) ochish va mablag‘lar hisobini yuritish, tashkil etilgan PSSHHRni barcha davlat hokimiyati va boshqaruv organlari bilan to‘liq integratsiyani ta‘minlash.

2. Pensiya ta‘minoti tizimi jozibadorligini oshirish va quyidagi vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- jamg‘arib boriladigan pensiya hisob varag‘idagi hamda PSSHHRda yig‘ilib boriladigan mablag‘lardan ipotek, ta‘lim va boshqa iste‘mol kreditlarini olishda ta‘minot sifatida foydalanish yoki muddatidan oldin mablag‘larni yechishga ruxsat berish;

O‘zbekiston Vazirlar Mahkamasi “Davlat pensiya ta‘minoti tizimini isloh qilish konsepsiyasini ishlab chiqish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida” qaror qabul qildi. Qarorga ko‘ra amaldagi davlat pensiya ta‘minoti tizimida mavjud

muammolarni tahlil qilish hamda ilg'or xorijiy tajriba asosida pensiya ta'minoti tizimining barqarorligini ta'minlash va ijtimoiy adolatni mustahkamlashga qaratilgan takliflarni tayyorlashga ma'sul ishchi guruh tashkil etildi. Ishchi guruhga bosh vazir o'rinbosari, iqtisodiyot va moliya vaziri Jamshid Qo'chqorov rahbarlik qiladi. Guruh tarkibidan iqtisodiyot va moliya vazirining birinchi o'rinbosari, kambag'allikni qisqartirish va bandlik vaziri, soliq qo'mitasi raisi, adliya vaziri o'rinbosarlari va Prezident administratsiyasi ikki mas'ul xodimi o'rin oldi.

2025-yil 1-martga qadar ishchi guruh davlat pensiya ta'minoti tizimini isloh qilish konsepsiyasi loyihasini ishlab chiqishi va kiritishi lozim. Ishchi guruhga belgilangan vazifalarni amalga oshirishda vazirlik va idoralar, ilmiy va ta'lim tashkilotlari, xalqaro tashkilotlar mutaxassislarini, shuningdek, mahalliy hamda xorijiy ekspert va maslahatchilarni jalb qilish huquqi beriladi.

Joriy yilning **1-dekabr kuni** O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari **Pensiya jamg'armasi** tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida «**Pensiya jamg'armasining hisoboti va tizimidagi so'nggi yangiliklar**» mavzusidagi 2022 yilning 9 oyida Pensiya jamg'armasi tomonidan Davlat dasturida belgilangan vazifalar ijrosi hamda joriy yilning 4-choragida amalga oshirilishi rejalashtirilgan ishlarga bag'ishlangan matbuot anjumani o'tkazildi. Tadbirda Pensiya jamg'armasi Ijro etuvchi apparati rahbariyati, boshqarma boshliqlari hamda ommaviy axborot vositalari xodimlari ishtirok etishdi.

Matbuot anjumanida ta'kidlanganidek, Pensiya jamg'armasining 2022 yil 9 oyligi daromadlari prognoz ko'rsatkichlari **23032,0 mlrd.so'm** belgilangan bo'lib, ijro **24 097,8 mlrd.so'mga yoki 105 foizga bajarildi**. Shuningdek, Jamg'arma tomonidan 4,2 mln. nafar **pensiya va nafaqa oluvchilarga 36,7 trln.so'm xarajatlar** amalga oshirildi.

2022 yilning 9 oy davomida Pensiya jamg'armasi tomonidan **336,9 ming nafar** fuqaroga pensiya va nafaqalar **tayinlangan**. Bu ko'rsatkich 2021 yilning mos davriga nisbatan **43,1 ming nafarga yoki 14,6 foizga oshgan**. Shuningdek, 2022 yil sentyabr oyida pensiyalarning bir oylik o'rtacha miqdori 1035,8 ming so'mni tashkil etib, 2021 yil dekabr oyiga nisbatan 112,9 ming so'mga yoki 12,0 foizga oshgan;

- nafaqalarning bir oylik o'rtacha miqdori **671,8 ming** so'mni tashkil etib, 2021 yil dekabr oyiga nisbatan **94,9 ming** so'mga yoki **16,5 foizga ko'paydi**.

Shuningdek, 2022 yil yanvar-sentyabr oylarida **3,9 mln.dan ortiq** oilaning bolalar nafaqasi va moddiy yordam tayinlash to'g'risida arizalari "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" ATga kiritilib, **1,8 mln. tasiga (46%) oilaga bolalar nafaqasi yoki moddiy yordam tayinlab berildi**.



Bugungi kunda “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimi orqali **2 350 mingdan ortiq** oilalarga bolalar nafaqasi va moddiy yordam tayinlanib to‘lanib kelinmoqda.

**Jumladan:**

- **664,4 ming** nafar fuqarolarga **bola tug‘ilganda beriladigan suyunchi** va **116,1 ming** nafar fuqarolarga **dafn marosimi uchun nafaqalarni** ular tomonidan Jamg‘armaga murojaat qilmasdan to‘g‘ridan-to‘g‘ri Xalq bankining istalgan filialiga borgan holda **to‘lanishi ta‘minlandi**;

- **337 ming** nafar fuqarolarga pensiya (nafaqa) tayinlanganligi, ro‘yxatda turishi hamda miqdori to‘g‘risida ma‘lumotnomalar **elektron shaklda taqdim etildi**;

- **110,4 ming** nafar fuqaroga **birgina pasport asosida** Jamg‘armaga murojaat qilmasdan to‘g‘ridan-to‘g‘ri Davlat xizmatlari markaziga borgan holda **8 xil turdagi nafaqalar tayinlanishi ta‘minlandi**.

“Ijtimoiy himoya yagona reyestri” AT orqali tayinlangan bolalar nafaqasi va moddiy yordam tayinlash uchun oilaning har bir a‘zosiga jami bir oylik o‘rtacha daromad **minimal iste‘mol xarajatlaridan foydalanishini joriy etildi**.

Hozirgi kunga kelib, “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimiga **16 ta vazirlik** va idoralarning axborot tizimlaridan **52 turdagi** ma‘lumotlar elektron olinmoqda. Jumladan 2022 yilning o‘tgan davrida qo‘shimcha **8 turdagi** (I va II guruh nogironlari, kasb-hunar kolleji, texnikum yoki akademik litsey o‘quvchisi, 18 yoshdan maktab o‘quvchilari, yoshlar dafturi, temir daftari, ayollar daftari, vafot etgan fuqarolar, arizachining manzili to‘g‘risidagi) **ma‘lumotlar elektron olinishi ta‘minlandi**.

2022 yil yanvar-sentyabr oylarida **3,9 mln.dan ortiq** oilaning bolalar nafaqasi va moddiy yordam tayinlash to‘g‘risida arizalari “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” ATga kiritilib, **1,8 mln. tasiga (46%) oilaga bolalar nafaqasi yoki moddiy yordam tayinlab berildi**. Bugungi kunda “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimi orqali **2 350 mingdan ortiq** oilalarga bolalar nafaqasi va moddiy yordam tayinlanib to‘lanib kelinmoqda.

2022 yilning yanvar – sentyabr oylarida **123 899 nafar** jismoniy va yuridik shaxslardan kelgan **ariza, shikoyat va takliflar o‘rnatilgan tartibda ko‘rib chiqildi** (shundan, **98 650 tasi** O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti virtual qabulxonasi orqali kelgan).

Bosh Prokuratura “Ishonch” telefoni orqali kelgan **12 715 nafar** va Pensiya jamg‘armasi “Ishonch” telefoni orqali **1 683** nafar fuqarodan qabul qilingan murojaatlar o‘rnatilgan tartibda rasmiylashtirilib, joyiga chiqib o‘rganilgan holda ijrosi ta‘minlandi.

Qishloq va mahalla fuqarolar yig‘inlarida **21 928** marotaba fuqarolar bilan **sayyor uchrashuvlar o‘tkazilib** (shundan, ijro etuvchi apparat tomonidan 48

marotaba), pensiya ta'minotiga oid murojaatlar yuzasidan huquqiy tushuntirishlar berildi hamda amaliy yordamlar ko'rsatildi, **3 marotaba matbuot anjumani** va **4 brifing** tashkilotildi, amg'armaning **www.pfru.uz** saytga **148 ta maqola joylashtirildi**.

### **Qonunchilikdagi o'zgarishlar:**

Mamlakatimizda pensionerlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish, qariyalar va keksa yoshdagilarga har tomonlama g'amxo'rlik qilish, fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish va sohada mavjud muammolarni bartaraf etish, bu borada byurokratik to'siqlarni qisqartirish yuzasidan **2022 yilning 9oy davomida 3 ta** O'zbekiston Respublikasining **Qonuni**, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **3 ta farmonlari** va **4 ta qarorlari** hamda O'zbekiston Respublikasi **Vazirlar Mahkamasining 2 ta qarori** va **1 ta farmoyishi** qabul qilindi.

### **Bundan tashqari,**

–**6 ta** - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlariga;  
–**4 ta** - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlariga;  
–**2 ta** - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlariga **o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilib, bugungi kun holatiga muvofiqlashtirildi**.

### **Kiritilga o'zgartirishlarga muvofiq:**

- Ayollarga pensiya hisoblashda ularning bolani parvarishlash bo'lish vaqtining hammasini jamlanganda ko'pi bilan **6 yillik** davrni **ish stajiga qo'shib hisoblash huquqi berildi**;

**Natijada, 80 mingdan ortiq 2 va undan ortiq farzandi bo'lgan ayollarning pensiya miqdorlari o'rtacha 15 ming so'mdan 50 ming so'mgacha oshdi.**

- o'quvchi va talabalar boquvchisini yo'qtoganlik pensiyasini olish huquqini ta'lim muassasalarida **o'qishning butun davri davomida, biroq 23 yoshga to'lgunga qadar saqlab qolish huquqi berildi**.

**Natijada, 12 mingdan ortiq boquvchisini yo'qotgan o'quvchi va talabalarning pensiyalari 23 yoshgacha uzaytirildi.**

- nogironligi bolalikdan bo'lgan bolalarga **18 yoshgacha qaragan davrini ish stajiga qo'shib hisoblash yo'lga qo'yildi**.

Mazkur chora-tadbirlarni moliyalashtirish uchun Pensiya jamg'armasi hisobidan qo'shimcha **66,4 mlrd so'm** ajratildi.

Shu bilan birga, joriy yilda **2023 yil 1 yanvardan boshlab** pensiyalarini hisoblab chiqarish uchun qabul qilinadigan o'rtacha oylik ish haqining eng ko'p miqdorini pensiyani hisoblash bazaviy miqdorining o'n barobaridan **o'n ikki barobarigacha oshirish** nazarda tutuvchi **Qonun loyihasi qabul qilindi**.

Natijada **352 ming nafar fuqaroning** pensiya miqdori qayta hisob kitob qilinib o‘rtacha oylik pensiya miqdori **400 ming so‘mgacha** oshishi kuzatiladi.

**2022 yil 26 oktabr kuni** “Fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuniga pensiya tayinlash tartibini takomillashtirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi O‘zbekiston Respublikasining **O‘RQ-795-son** Qonuni qabul qilindi.

**Mazkur Qonun bilan 2023 yil 1 yanvardan** boshlab **I va II guruh nogironligi bo‘lgan** shaxslarning pensiya tayinlanganidan keyin kamida 1 yillik ish staji mavjud bo‘lgan taqdirda ish staji va ish haqilarini inobatga olgan holda **har 2 yilda bir marotaba qayta hisoblab chiqiladi.**

Natijada, **2023 yilda 75 mingdan** ziyod nogironligi bo‘lgan shaxslarning pensiyalari ularning arizalariga asosan qayta hisob-kitob qilinib o‘rtacha **300 ming so‘mgacha oshadi.** Kelgusida nogironlik pensiyasi tayinlanganidan keyin mehnat faoliyatini olib boragan **43 mingdan** ziyod nogironligi bo‘lgan shaxslarning pensiyalari **har 2 yilda** (ish staji va oylik ish haqidan kelib chiqib) bir marotaba qayta hisoblab boriladi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 25 fevraldagi “**O‘limni qayd etish bilan bog‘liq kompozit davlat xizmatlarini ko‘rsatishning ma‘muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida**”gi **89-son qarori** qabul qilindi. Mazkur qarorga asosan, fuqaro vafot etganligi tibbiy muassasa tomonidan qayd etilganda, dafn marosimi uchun nafaqalar **avtomatik ravishda tayinlanishi** va fuqaro Xalq bankining istalgan filiali orqali **nafaqani olish imkoniyati yaratildi.**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 7 apreldagi “Davlat pensiyalari, nafaqalar, kompensatsiyalar va boshqa ijtimoiy to‘lovlarni to‘lash tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-198-son qaroriga asosan **2022 yil 1 maydan** boshlab barcha turdagi davlat pensiyalarini, budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi tomonidan to‘lanadigan nafaqalar, kompensatsiyalar va boshqa to‘lovlarni hamda kam ta‘minlangan oilalar uchun bolalar nafaqasi va moddiy yordam pulini bank kartalari orqali oluvchilarga har oylik pensiya va nafaqa pulining 1 foizi miqdorida qo‘shimcha to‘lov joriy qilindi.

#### **Tizim yangiliklari:**

Pensiya jamg‘armasi tomonidan tayinlanadigan **12 turdagi pensiya va nafaqalarning 9 turini** bugungi kunda inson omilisiz, avtomatik, interaktiv va proaktiv shaklda tayinlash tizimi yo‘lga qo‘yilgan.

Joriy yilning 9 oyi davomida **1,2 mln. nafar** fuqaroga **interaktiv va masofaviy xizmatlar ko‘rsatildi.** Jumladan,

- **664,4 ming** nafar fuqarolarga **bola tug‘ilganda beriladigan suyunchi** va **116,1 ming** nafar fuqarolarga **dafn marosimi uchun nafaqalarni** ular



tomonidan Jamg'armaga murojaat qilmasdan to'g'ridan-to'g'ri Xalq bankining istalgan filialiga borgan holda to'lanishi ta'minlandi;

- **337 ming** nafar fuqarolarga pensiya (nafaqa) tayinlanganligi, ro'yxatda turishi hamda miqdori to'g'risida ma'lumotnomalar elektron shaklda taqdim etildi;

- **110,4 ming** nafar fuqaroga **birgina pasport asosida** Jamg'armaga murojaat qilmasdan to'g'ridan-to'g'ri Davlat xizmatlari markaziga borgan holda **8 xil turdagi nafaqalar tayinlanishi ta'minlandi.**

#### **2022 yilning 4-choragida amalga oshirilishi rejalashtirilgan ishlar:**

- Pensiyani hisob-kitob qilish uchun ish haqining maksimal miqdori pensiyani hisoblash bazaviy miqdorining **o'n barobaridan o'n ikki barobarigacha oshirish. Bunda, 2023 yil 1 yanvarga qadar tayinlangan barcha pensiya ishlari qayta hisob-kitob qilib chiqiladi;**

Natijada **352 ming nafar** fuqaroning pensiya miqdori qayta hisob kitob qilinib o'rtacha oylik pensiya miqdori **400 ming so'mgacha** oshiriladi. Ushbu maqsadlar uchun 2023 yilda Pensiya jamg'armasidan qo'shimcha ravishda **1,6 trln. so'mdan ortiq** miqdoridagi mablag' ajratiladi.

- 2023 yil 1 yanvardan boshlab **I va II guruh nogironlik pensiyasi** tayinlanganidan keyin kamida 1 yil ish stajiga ega bo'lgan fuqarolarning arizasi asosida ish staji va ish haqi inobatga olingan holda pensiyani har ikki yilda bir marta qayta hisoblab chiqish tizimini yo'lga qo'yish;

Natijada, **2023 yilda 75 mingdan** ziyod nogironligi bo'lgan shaxslarning pensiyalari ularning arizalariga asosan qayta hisob-kitob qilinib o'rtacha **300 ming** so'mgacha oshadi. Ushbu maqsadlar uchun **2023 yilda** Pensiya jamg'armasi mablag'lari hisobidan yiliga qo'shimcha ravishda o'rtacha **275 mlrd. so'm** mablag' ajratiladi.

Shuningdek, kelgusida nogironlik pensiyasi tayinlanganidan keyin mehnat faoliyatini olib boragan **43 mingdan** ziyod nogironligi bo'lgan shaxslarning pensiyalari har **2 yilda** (ish staji va oylik ish haqidan kelib chiqib) bir marotaba qayta hisoblab boriladi.

- Xalqaro ekspertlar va xalqaro tashkilotlar bilan birgalikda biznes jarayonlarini qayta boshqarish usullaridan (**Business Process Reengineering, BPR**) foydalanib hamda quyidagilarni inobatga olgan holda "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risidagi Qonunni takomillashtirish rejalashtirilgan.

#### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022- 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to,,g,,risida"gi PF-60-sonli Farmoni (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2022-y.

2. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi rasmiy veb sayti Konvensiya Mejdunarodnoy Organizatsii Truda "O' minimalnix normax sotsialnogo obespecheniya" (№102). – 32 c. ([www.ilo.org/wcmsp5/groups/public/wcms\\_c102\\_ru.pdf](http://www.ilo.org/wcmsp5/groups/public/wcms_c102_ru.pdf))
3. Ziyadullaev M.J. Pensiya ta'minotidagi islohatlar vayaratilgan interaktiv xizmatlar."O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minoti tizimining dolzarb muammolari" mavzusidagi ilmiy-amaliy anjumani tezislari to'plami. 2017 yil 14-mart.-T/;"Iqtisod moliya", 2017. 19-21-b.
4. Mamanazarov M.A., G'aniev A.Yo. Jamg'ariladigan pensiya tizimining afzalliklari va kamchiliklari. "Pensiya tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash va samaradorligini oshirish" mavzusidagi O'zbekiston Milliy universitetining 100 yilligiga bag'ishlangan respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari to'plami.- Toshkent,2017 yil 15 noyabr.76-77-b.